

ONA VA BOLA SALOMATLIGINI MUHOFAZASIDA TIBBIYOT XODIMINING  
ROLI

**Ботирова Мавжуда Кахаровна**

*АДТИ, Ижтимоий гигиена ва ССБ кафедраси катта уқитувчиси*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada ona va bola salomatligini muhofazasida tibbiyot xodimining roli, Har bir homilador ayolni tug'uruqgacha ikki marotaba patronaj olib borish, O'zbekiston Respublikasida onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimida davolash va profilaktik yordam ko'rsatish haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit So'zlar:** *ijtimoiy-tibbiy, akusherlik-ginekologiya, pediatriya, davolash-profilaktika, Zardushtiylik.*

**Abstract:** *This article provides information about the role of a medical worker in protecting the health of a mother and child, carrying out patronage of every pregnant woman twice before giving birth, providing treatment and preventive care in the maternal and child protection system in the Republic of Uzbekistan.*

**Key Words:** *social-medical, obstetrics-gynecology, pediatrics, treatment-prophylaxis, Zoroastrianism.*

**Аннотация:** *В данной статье представлена информация о роли медицинского работника в охране здоровья матери и ребенка, осуществлении патронажа каждой беременной двукратно перед родами, оказании лечебно-профилактической помощи в системе охраны материнства и детства в республике. Узбекистана.*

**Ключевые Слова:** *социально-медицинский, акушерство-гинекология, педиатрия, лечение-профилактика, зороастризм.*

**KIRISH**

Onalar va bolalar salomatligini saqlash va mustahkamlash, sog'lom, jismonan va aqlan barkamol bolalarni tarbiyalashga qaratilgan davlat va ijtimoiy-tibbiy tadbirlar tizimi. O'zbekiston Respublikasida bu tizim ayollar, homiladorlar va emizikli onalar mehnatini muhofaza qilish qonunchiligi, onalar va bolalarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, shuningdek, akusherlik-ginekologiya va pediatriya yordamini ko'rsatadigan maxsus davolash-profilaktika muassasalari tarmoklarini yaratishga asoslangan. Mamlakat mustaqillikka erishganidan so'ng Oila va boshqalarga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar ko'zda tutilgan dasturlar ishlab chiqilgan. 1998-yildan Toshkentda "Oila" ilmiy-amaliy markazi faoliyat ko'rsata boshladi; bu markazda O'zbekistonda oilani shakllantirish va demografik rivojlantirishga oid muammolar yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi. Davlat tomonidan yosh bolali onalar ish soatlari cheklanadi, ularga to'liqsiz ish kuni, to'liqsiz ish haftasi, shuningdek, zaruriyatdan kelib chiqib o'zlariga qulay soatlarda yoki uyda ishlash imkoniyatlari beriladi. Har bir ona va bola sog'lig'ini kuzatish, ularga malakali tibbiy yordam

ko'rsatish ham davlat zimmasida bo'ladi. Sog'lom avlodni tarbiyalash maqsadida davlat organlari, tashkilotlari va muassasalari tomonidan maktabgacha ta'lim, maktab, internat maktab, bolalarni sog'lomlashtirish komplekslari kabi xilma-xil tarmokdar rivojlantirilmoqda.

### **ADABIYOTLAR VA METADOLOGIYA**

Onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollar mehnatini muhofaza qilish, sut oshxonalarining tashkil etilishi, homilador ayollar va tuqqan ayollarga mehnat ta'tillari berish, ayollar va bolalarga xizm atqiluvchi muassasalar tarmog'ining kengayishi shular jumlasidandir.

O'rta Osiyo tibbiyotining rivojlanishida katta turtki bo'lgan va milliy qadriyatlarimizning ko'p qirralarini o'zida mujassamlashtirgan eng muhim yozma yodgorlik «Avesto» hisoblanadi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitoblaridan sanalgan «Avesto» bundan uch ming yil avval Xorazmda yaratilgan. Ma'lumki, xalqimiz qadimdan serfarzandlikni yoqtiradigan, «o'nta bo'lsa o'rni boshqa» qabilida iloji boricha naslni ko'paytirishga intiladigan xalq hisoblanadi. «Avesto»da ham xalqimizning ana shu olijanob fazilati tangri Yazdon tom onidan olqishlangan. Zardusht Axura M azdadan: «Serfarzand xonadonga nim a berasan?» deb so'ralganda, u: «Bunday odamlarni o'z himoyamga olaman, hayotini farovon, rizqini mo'l qilam an», deb javob beradi. Ushbu din taqidasi ko'ra, katta oilalar jamoat himoyasida saqlangan, bir yo'la 2 - 3 tadan farzand ko'rgan oilalar tuya bilan mukofotlangan, ularga doimiy nafaqa belgilangan. Yer yuzida inson zurriyotining ko'payishiga qarshi chiqib, qasddan turmush qurmay yurgan qiz qopga solinib, 25 darra bilan kaltaklangan, uylanmasdan yurgan erkak doimiy temir kamar bog'lab yurishga majbur qilingan. Umuman, serfarzand oilalar jamoada katta obro'ga, alohida imtiyozlarga ega bo'lishgan.

### **NATIJALAR**

O'zbekiston Respublikasida onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimida davolash va profilaktik yordam ko'rsatish ishlari quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

I. Homiladorlikdan oldin xotin-qizlarga tibbiy yordam ko'rsatish va ularni onalikka tayyorlash.

II. Homilani antenatal (tug'uruqdan oldin ) muhofaza qilish tadbirlarini olib borish.

III. Homilani intranatal muhofaza qilishni amalga oshirish (tug'ish jarayonini to'g'ri tashkil qilish hisobiga).

IV. C haqaloqlar sog'lig'ini muhofaza qilish.

V. Maktabgacha yoshdagi bolalar salomatligini saqlash.

VI. Maktab yoshidagi bolalar va o'smirlarning salomatligini muhofaza qilish. Bu vazifalarni amalga oshirishda barcha bo'g'in mutaxassisleri, ya'ni akusher-ginekolog shifokorlar, akusherka (doya)lar, feldsherlar, terapevt va pediatrlar hamda maorif tizimi xodimlarining hamkorligi talab etiladi.



Tegara ham shirasi shu tegaraga birlashtirilgan pediatrianing asosiy yordam hisi bo'lib, u «shifokorning ko'z-qulog'i» hisoblanadi. Chunki u o'z tegarasida sog'lom bolalarni o'stirishda shifokorning eng yaqin maslahatchisi va hamkori, buyurilgan vazifalarni sidqidildan bajaruvchi shaxsdir.

Tegara hamshirasining ishi bir necha asosiy bo'limlardan iborat:

Tegara hamshirasining profilaktik ishlari - hamshira ishlarining eng asosiysi hisoblanadi, chunki kelajak tibbiyoti profilaktik tibbiyotdir. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun hamshira quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

Har bir homilador ayolni tug'uruqgacha ikki marotaba patronaj (tegaradagi aholi uylariga borishidan o'tkazadi).

Birinchi patronaj — bo'lg'usi onaga qaratilgan bo'lib, ayollar masla hatx onalaridan homilador ayol haqida xabar kelgan kunlarda amalga oshiriladi. U ning maqsadi hom ilador ayol haqida, uning salomatligi, oilaviy ahvoli, oldingi homiladorliklarining qanday kechganligi haqida, bolalarining hozirgi ahvoli haqida ma'lu mot olishdan iborat.

Ikkinchi patronaj — bola tugilishiga kamida 10-15 kun qolganda amalga oshiriladi va asosiy e'tibor tug'iladigan bolaga qaratilgan bo'ladi. Chaqaloq tuxum xonadan chiqqanidan keyin zarur bo'ladigan oqliklar, parvarish anjomlari, gigiyenik moslamalar, bolaga ajratilgan xona, bola uchun tayyorlangan 12 joy va bola parvarishida qatnashadigan kishilar haqida aniq m a'lumotlar yig'iladi va kerakli maslahatlar beriladi. Zaruratga qarab (homilador ayolda turli xil tug'uruqni og'irlashtiruvchi holatlar va kasalliklar bo'lganda) uchinchi patronaj chaqaloq tug'ilishiga 3 - 4 kun qolganda o'tkaziladi. Agar sharoit imkon bersa bunday ayollar tug'uruqqa tayyorlash bo'limlariga joylashtiriladi va tug'ilish vaqti kelganda tug'uruq zaliga o'tkaziladi.

Bolalarga yordam ko'rsatishdagi yana bir muammo — bu bemor bolani tekshirish jarayonida uning sog'lig'idagi o'zgarishlardir. Shifokorlar yosh bolalarni tekshirishda ancha qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki 3—4 yoshgacha bo'lgan bolalar o'z shikoyatlarini tushuntirib bera olmaydilar, og'riyotgan joyini ko'rsata olmaydilar, yana bir qiyinchilik tomoni, ular tana harorati ko'tarilganda ham o'ynab yuraveradilar

### **XULOSA**

Ayollar va bolalar salomatligini saqlash va mustahkamlash, shifokorlik xizmatini yanada yuqori saviyaga ko'tarish, sog'lom avlodni kamol toptirish O'zbekiston Respublikasi olib borayotgan izchil siyosatning bosh maqsadi hisoblanadi.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. А.В.М азурин, И.М .Воронков. П ропедевтика детских болезней. М осква. 1985.
2. Л .А.И саев. Н аука о детски х б ол езн ей . М осква. 1986.

3. А .М .Запруднов, К.И .Григорьев. Н а у к а о д е т с к и х б о л е з н е й . М о с к в а . 1997.
4. J.Eshqobulov, A.Mahmudov. В о л а л а r k a s a l l i k l a r i f a n i . А б у А Н и b n S i n o n o m i d a g i t i b b i y o t n a s h r i y o t i . Т о ш к е n t . 1993.
5. К.А.Svyatkina, E.V.Belogorskaya, N.P.Kudryavsev. В о л а l a r k a s a l l i k l a r i f a n i . А б у А l i i b n S i n o n o m i d a g i t i b b i y o t n a s h r i y o t i . Т о ш к е n t . 1990.